

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14003778>

## OZOD SHARAFIDDINOV: YORQIN ISTE'DOD VA SERMAHSUL IJOD

**Tulishova Gulzina Ravshanovna**

Jizzax davlat pedagogika universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Maqolada O'zbekiston Qahramoni, atoqli adabiyotshunos Ozod Sharafiddinovning zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligi va tanqidchiligi rivojidagi o'rni masalasi munaqqidning ilmiy-ijodiy faoliyati hamda sara asarlari misolida tadqiq etilgan.

**Kalit so'zlar:** Tanqidchi, adabiyotshunos, zabardast tarjimon, yirik jamoat arbobi, mohir ustoz-murabbiy, taniqli publitsist, ma'naviyat, tafakkur, tasavvur.

**Abstract:** The article examines the role of the Hero of Uzbekistan, famous literary critic Ozod Sharafiddinov in the development of modern Uzbek literary studies and criticism, using the example of the critic's scientific and creative work and works.

**Key words:** Critic, literary critic, excellent translator, great public figure, skilled teacher-coach, well-known publicist, spirituality, thinking, imagination.

**Аннотация:** В статье рассматривается роль Героя Узбекистана, известного литературного критика Озода Шарафиддинова в развитии современного узбекского литературоведения и критики на примере научной и творческой деятельности и творчества критика.

**Ключевые слова:** Критик, литературовед, прекрасный переводчик, крупный общественный деятель, опытный педагог-тренер, известный публицист, духовность, мышление, воображение.

## KIRISH

Har bir xalq va millat tarixida shunday ulug‘ shaxslar bo‘ladiki, ular o‘zining favqulodda ulkan salohiyati, yurtparvarligi, ona-vataniga fidoiyligi va sadoqati bilan, el-yurtiga qilgan yuksak xizmati bilan katta shuhrat qozonadi hamda xalqining faxru g‘ururiga aylanadi. Atoqli tanqidchi va adabiyotshunos, zabardast tarjimon, yirik jamoat arbobi, mohir ustoz-murabbiy, taniqli publitsist, “Oltin qalam” mukofoti sovrindori Ozod Sharafiddinov ana shunday buyuk siymolarimizdan biri edi. XX asr o‘zbek adabiyoti va tanqidchiligi tarixini, xalqimiz ma’naviyati hamda tafakkuri rivojini Ozod Sharafiddinov ijodiy faoliyatisiz to‘liq tasavvur etib bo‘lmaydi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

“Adabiyotimiz tarixi o‘zanidan turib yaqin yuz yillikka nazar tashlasak, juda ko‘p sonli qalamkashlarning ijodlariga ko‘zimiz tushadi. Ulardan hech birining xizmatlarini kamsitmagan holda aytish mumkinki, keyingi ellik yil ichida faoliyat ko‘rsatgan adabiyotshunoslar, publitsistlar silsilasida Ozod Sharafiddinovning nomi alohida bir cho‘qqi yanglig‘ ko‘zga tashlanib turadi. Ozod Sharafiddinov o‘zidan o‘lmas ijodiy meros qoldirdi. Bu ijod nainki bir insonning, balki butun bir millatning faxru g‘ururi bo‘la oladigan ijoddir.”<sup>1</sup> O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripovning bu samimiy e‘tirofi butun adabiy jamoatchilikning va ziyoli xalqimizning ham yakdil bir bahosi deyish mumkin.

Bu tarixiy haqiqat birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning so‘zlarida ham teran ifodasini topgan edi: “Ozod Sharafiddinov hayotda ham, ijodda ham o‘zining haqqoniy so‘zi, iroda va matonati bilan yurtdoshlarimizga, avvalambor yoshlarimizga ibrat bo‘layotgan, tom ma‘nodagi ma‘rifatparvar insondir”.<sup>2</sup> Haqiqatan ham, Ozod Sharafiddinov tanqidchi o‘z iste‘dodi va yorqin shaxsi bilan adabiy jarayonda hamda badiiy ijod olamini boyitish va rivojlantirishda qanchalar muhim rol o‘ynashi va qudratli ta‘sir ko‘rsatishi mumkinligini har jihatdan yaqqol isbotlab bera oldi. “Mudom muttasil fikrlab, fikrlaganda ham mustaqil mulohaza yuritib yashash ustozning bosh

<sup>1</sup> Abdulla Oripov. Yuksakka chorlovchi e‘tiqod. Ozod Sharafiddinov zamondoshlari xotirasida. –T.: O‘zbekiston, 2007-yil 3-b.

<sup>2</sup> Karimov I. Yuksak ma‘naviyat - yengilmas kuch. –T.: Ma‘naviyat, 2008-yil 84-b.

hayotiy shiorlaridan bo‘lgan... hayotga doimo talabchanlik bilan yondashuv, tiyiqsiz qiziquvchanlik, har ish, har bobda asl mohiyat sari intilish hissi umrining so‘nggi daqiqalarigacha ustozni tark etmaganligi ham barchamizga ibratli”. (Erkin A‘zam)

### NATIJALAR

Ozod Sharafiddinov ijodiy faoliyatisiz XX asr o‘zbek adabiyoti va tanqidchiligi tarixini, xalqimiz ma‘naviyati hamda tafakkuri rivojini to‘liq tasavvur etib bo‘lmaydi. Ulug‘ adiblar ijodi kabi Ozod Sharafiddinovning ham adabiy-tanqidiy va ijodiy merosi bag‘oyat boy hamda ko‘lamdor, ayni vaqtda, mavzu yo‘nalishi xilma-xil, janr va shakl jihatidan ham rang-barangdir. “Buyuklikka qolip yo‘q” deyishadi. Bu muxtasar tashbeh-ibora Ozod Sharafiddinovning shaxsi va ijodiga nisbatan ham munosib bir ta‘rif bo‘la oladi.

Ozod Sharfiddinovlar avlodi ham shonli va mashaqqatli ijod yo‘llarini bosib o‘tdi. Sho‘rolar zamonida ijodkorlarning o‘rni, mavqeyi ularning iste‘dodi va ijodining yuksakligi bilan emas, balki partiyaga nechog‘lik sodiqligiga qarab belgilanar, partiya qarorlariga munosabatiga ko‘ra mukofotu yorliqlar bilan taqdirlanardi. Ya‘ni u tuzumda ijodkor iste‘dodi haqqoniy baholanmagan. Ana shunday g‘ayrioddiy qonun-qoidalar asosiga qurilgan g‘addor tuzumga qarshi chiqq olgan insonlardan biri ulug‘ yozuvchi Abdulla Qahhor bo‘lgan bo‘lsa, yana biri esa tanqidchi-adabiyotshunos Ozod Sharafiddinov bo‘lganligi ko‘plab zamondoshlar va etuk shogirdlar tomonidan haqli ravishda ta‘kidlanadi va samimiyat bilan xotirlanadi.<sup>1</sup>

Ozod Sharafiddinov shaxsi va ijodini yaqindan bilgan va u kishini o‘ziga ustoz deb, doim e‘zozlab kelgan hassos shoirimiz O‘zbekiston Qahramoni Erkin Vohidovning ta‘kidlashicha, ozodlik ruhi faqatgina yangi avlod ijodidagina emas, balki XX asrning o‘ttizinchi yillaridayoq ustoz adib Abdulla Qahhor erkin ijod uchun va adabiyotdagi soxtalikka qarshi kurashning oldingi qatorida turgan. Ulug‘ yozuvchining o‘tkir publitsistik maqolalari, badiiy ijod haqidagi achchiq va iztirobli so‘zlari mafkuraviy mutelik, fikriy torlik hukm surayotgan muhitni larzaga solgan edi. Erkin

<sup>1</sup> Ozod Sharafiddinov zamondoshlari xotirasida. –T.: O‘zbekiston, 2007-yil 302-bet.

Vohidovning maqolalari va xotira-essellarida Abdulla Qahhor hamda Ozod Sharafiddinovlarga bo‘lgan ibratomiz munosabati, minnatdorchiligi davr haqiqatini ifoda etgani bilan ham qimmatlidir. “XX asr o‘zbek adabiy muhitida o‘z ibratli shaxsiyati, mustahkam e’tiqodu dunyoqarashi bilan ziyolilarimizning butun bir avlodi uchun namuna bo‘lib tanilgan alloma Ozod Sharafiddinov mening nafaqat shoir, balki inson sifatida shakllanishimga katta ta’sir ko‘rsatgan chin ma’nodagi ustoz edi” – deya e’tirof etadi. Haqiqatan ham, Ozod Sharafiddinov o‘tgan asr adabiyoti hamda adabiyotshunosligi taraqqiyotida beqiyos iz qoldirgan buyuk o‘zbek mutafakkirlaridan biri edi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Olimning XX asr yangi o‘zbek adabiyotining mustabid tuzum siyosatining tazyiq – tahdidlari tufayli toptalgan tarixini tiklash, qatag‘on qilingan Fitrat, Cho‘lpon, Otajon Hoshim kabi jadidlar merosini xalqqa qaytarish yo‘lidagi jonbozliklari bilan birga Shayxzoda, Mirtemir, Said Ahmad singari nohaq jabrlangan adiblar ijodini chuqur yoritishi ham ilmiy-ijodiy jasoratning bir namunasi bo‘la oladi. Mustabid tuzum sharoitida bunday kurash va shijoat oqibati qanchalar noxush va xavfli bo‘lganini hozirgi yoshlar yaxshi bilmasliklari mumkin. Shu bois og‘riqli bo‘lsa-da, yaqin tariximiz sahifalariga, tasavvur va tafakkurimizni boyituvchi ana shunday muhim fakt hamda misollarga murojaat qilishimizga to‘g‘ri keladi.

### MUHOKAMA

Ozod Sharafiddinov ko‘p yillik izlanishlar va ne mashaqqatlar bilan to‘plab, nashrga tayyorlagan va muharriri bo‘lgan “Tirik satrlar” to‘plami ham “xalq dushmanlari”ning, ya’ni jadidlarning she’rlarini tiriltirishga urinish degan siyosiy tamg‘a bilan keskin qoralandi va 1968 yili shunday nodir asar shafqatsizlarcha yoqib yuborildi.

Ozod Sharafiddinov boshidan kechirgan nohaqlik va ruhiy iztiroblarni ko‘rsatuvchi mudhish tarixiy voqealardan yana birini keltirib o‘tish o‘rinli bo‘ladi. O‘nlab iste’dodli ijodkorlarga ustoz bo‘lgan haqgo‘y adib Abdulla Qahhorning “Yoshlar bilan suhbat” nomli nodir asariga ham Ozod Sharafiddinov muharrirlik qilgan va bu kitob ham o‘sha mash’um davr siyosati oqibatida 1968 yili qatag‘onga

uchradi, olovda yoqildi.<sup>1</sup> O‘z davrida adabiyotimiz va tanqidchiligimiz saviyasini ko‘tarishda muhim ahamiyat kasb etgan va hukmron sovet mafkurasining zo‘ravonlik siyosatiga qarshi bir isyon bo‘lib tuyulgan “Yoshlar bilan suhbat” kitobining ayanchli taqdiridan bugungi yosh kitobxonlarimiz deyarli bexabar deyish mumkin.

Adib vafotidan so‘ng zukko matnshunos va tarjimon Kibriyo Qahhorova hamda Ozod Sharafiddinov va Matyoqub Qo‘shjonovlarning sa‘y-harakati bilan 1968 yili chop etilgan<sup>2</sup> bu noyob kitobning qayta nashri bugun ham ijtimoiy adolatning yorqin bir dalili va unutilmas sabog‘i bo‘la oladi. Ushbu kitobning o‘tda yoqib yuborilishi, ya‘ni sovetlar tuzumida ko‘p takrorlangan jaholatning chirkin namoyishi bo‘lgan bu qabohat sababi haqida Ozod Sharafiddinovning so‘nggi kitobi – “Ijodni anglash baxti” (2004) nomli asarida ta‘sirchan xotiralar bitilgan. Ozod Sharafiddinov va boshqa ziyolilar guvohlik berishlaricha, 1967-yil 17- sentyabrda Alisher Navoiy nomidagi teatrda Abdulla Qahhorning 60 yillik yubileyi nishonlanadi. O‘sha anjumanda Abdulla Qahhorning qisqa nutqi kutilmagan darajada kuchli ta‘sir kuchiga ega bo‘lgan. Ya‘ni adibning “Men partiyaning soldati emas, ongli a‘zosiman!” degan so‘zlaridan zalda go‘yo bir bomba portlaganday bo‘ladi. Bu so‘zlar qisqa fursatda Moskvaga – Kompartiyaning Markaziy Komitetiga va boshqa sovet organlariga etib borgan. Bu davrda barcha sovet adiblari “butun qalbimiz jonajon partiyamizniki” degan Mixail Sholoxov kabi o‘zlarini “partiyaning soldati” deb hisoblashar edi. Abdulla Qahhor esa o‘sha nutqida inson erkini, inson aqlini himoya qilib chiqqan va inson ustidan zo‘ravonlik qilishga qarshi norozilik bildirgan. Abdulla Qahhor bu nutqidan keyin umrining oxirigacha va vafotidan keyin ham anchagacha ta‘na-dashnomlardan qutulmagan.

## XULOSA

Munaqqid asarlari chuqur bilimi, tadqiqotchilik mahorati va xolisona ilmiy pozitsiyasi tufayli erishgan jiddiy bir yutug‘i sanaladi. Ularda butun ijodi bir-biriga hamohang bo‘lgan atoqli va yetuk adiblarimizning sermazmun hayot yo‘li, unutilmas

<sup>1</sup> Vohidov Erkin. Ustoz siyratiga chizgilar. Asarlar. Oltinchi jild. –T.: Sharq, 2018-yil 280-bet.

<sup>2</sup> Abdulla Qahhor Yoshlar bilan suhbat. –T.: Yosh gvardiya, 1968-yil.

shaxsi hamda ma'naviy qiyofasi samimiy va haqqoniy aks ettirilganki, ularni tanqid-adabiyotshunosligimizning yorqin sahifalari deya ta'riflash mumkin. Bunday xususiyat Ozod Sharafiddinovning deyarli barcha asarlariga xos mushtarak fazilatdir. Ozod Sharafiddinov asarlari hamda ulardagi adabiy-tanqidiy maqola va taqrizlari qaysi mavzuga bag'ishlanmasin, ularda so'z san'atining milliy o'ziga xoslik hamda badiiy mahorat masalalariga alohida e'tibor qaratilgani ham ustoz ijodiy faoliyatining izchil bir yo'nalishini tashkil etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Abdulla Oripov. Yuksakka chorlovchi e'tiqod. Ozod Sharafiddinov zamondoshlari xotirasida. –T.: O'zbekiston, 2007-yil 3-b.
2. Karimov I. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. -T.: Ma'naviyat, 2008-yil 84-b.
3. Ozod Sharafiddinov zamondoshlari xotirasida. –T.: O'zbekiston, 2007-yil 302-bet.
4. Vohidov Erkin. Ustoz siyratiga chizgilar. Asarlar. Oltinchi jild. –T.: Sharq, 2018-yil 280-bet.
5. Abdulla Qahhor Yoshlar bilan suhbat. –T.: Yosh gvardiya, 1968-yil.